UMR — INSON UCHUN BERILGAN MUHLATLI HAYOT DAFTARI

Musurmonova Mohichehra Baxtiyor qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti

2-bosqich talabasi

E:mail:musurmonovamohichehra11@gmail.com

Tel:+99893-357-94-34

Annotation: Maqsud says that Prince's "notebook with a limited period of human life" means that this notebook should be filled with useful, noble deeds - "records". Indeed, this limited, wandering life, that is, every line of the writer who filled his timeless notebook with lines of goodness, has universal meaning and wisdom. The article discusses this.

Keywords: very compassionate, lively hands, ruthless, evil, cold, lazy "hands", hands are the navkars of the heart..

Annotatsiya: Maqsud Shayxzoda “Inson umri cheklangan muhlatli daftar”, demak, bu daftarni foydali, ezgu ishlar – “yozuvlar” bilan to‘ldirish lozim deydi. Darhaqiqat, bu cheklangan, sargardonlikka to‘lgan umrni, ya’ni muhlatli daftarini ezgulik satrlari bilan to‘ldirgan adibning har satri qatlarida olamcha ma’no, hikmatlar mujassam. Maqolada shu xususda fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: g‘oyat shafqatli, hayotbaxsh qo‘llar, ayovsiz, yovuz, go‘r kabi sovuq, tanbal qo‘llar, qo‘llar yurakning navkarlaridir.

Umrim yo‘li bir xiyobon deya
o‘yladim Shu tufayli bog‘u
chaman kuyin kuyladim.

Shaharlarim ko‘chalarin men tinmay kezdim,
Daraxtlarning soni qadar misralar tizdim.

O‘zining “hayot charxpalagida obdon toblangan” umr yo‘lini xiyobon deya atab, e’tirof etganidek daraxtlar soni qadar misralar tizib, o‘zbek adabiyotini boyitgan betakror ijodkor Maqsud Shayxzoda “xalqimizning mehnat qahramonligi, kurash va jang, ozodlik va do‘stlik, baxt va alam, yurtning go‘zal manzaralari va insonning ma’naviy jamoli mening qalamimga oshno, dilimga mazmun bo‘lib keldi” deb ta’kidlagani ayni haqiqatdir. Qanchalik qiynoqlarni boshdan kechirsa-da, hech qachon bu haqda ayyuhannos solmagan, biror joyda aytib o‘tmagan adib qalbi naqadar keng, kechirimli bo‘lgan ekan. Shoirning bu fazilatlari, eng avvalo, hayotdagi, voqelikdagi va insonlarning ruhiy olamidagi o‘zgarishlar, holatlarni ifodalashga qodir yangi, betakror obrazlarida namoyon bo‘ldi. Insoniyat tarixi shunday zanjirlardan iborat ekanki, bular bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, insoniyat tarixi yaxlitdir va doim olg‘a qarab harakat qiladi, bu insoniyat karvonini – kemani to‘xtatib bo‘lmaydi, u insoniyat orzusi bo‘lgan saodat, yuksalish, baxt manzili tomon harakat qiladi.

Shayxzoda o‘z asarlarini “O‘n besh yillik daftari” yoki “Chorak asr devoni” deb nomlashi ham bejiz emasdir. Shoir ta’kidlaganidek, “Inson umri cheklangan muhlatli daftar”, demak bu daftarni foydali, ezgu ishlar – “yozuvlar” bilan to‘ldirish lozim deydi. Darhaqiqat, bu cheklangan, sargardonlikka to‘lgan umrini, ya’ni muhlatli daftarini ezgulik satrlari bilan to‘ldirgan adibning har satri qatlarida olamcha ma’no, hikmatlar mujassam.

Uning ijodida alohida o‘rin egallagan “Qo‘llar» she’rida qo‘llarda insonning borlig‘ini,

uning ichki olamining muhrini ko‘radi. Shoir fikricha, “g‘oyat shafqatli, hayotbaxsh qo‘llar” ham “ayovsiz, yovuz, go‘r kabi sovuq, tanbal” qo‘llar ham bor, qisqasi, har bir qo‘l “yurakning navkarlaridir”, yurak neni buyursa, qo‘l shuni ijro etadi. Oddiygina qo‘l nomi bilan atalgan hikmatomuz misralarda yaratganning hukmiga sodiqlik, qazoi qadarga rozilik alomati bordek go‘yo. Maqsud Shayxzoda she’riyatida har bir so‘zning chertib tanlanganidan shoir mahorati nechog‘li yuksakligi, uning dunyoni yaratgan so‘z qudratiga ixlosi sezilib turadi. U adabiyot olamini nafaqat go‘zal she’rlari bilan, balki xalq dardi bilan yashagan buyuklarga ehtiromi izhori o‘laroq ularni millatiga tanishtirish uchun ham tarix sarhadlariga e’tibori aks etgan tarixiy asarlari bilan boyitdi deya olamiz.

Shayxzoda ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan “Jaloliddin Manguberdi” (1944) tragediyasida ona yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq dalillar asosida haqqoniy tasvirlagan. Ulug‘ adib bilan bir safda turgan adiblarimizdan Oybek bilan G‘afur G‘ulom ham o‘sha vaqtda asarga juda yuqori baho berishib, uning o‘zbek kitobxonlari uchun naqadar qimmatli ekanini ta’kidlagan: “Asar tarixiy jarayonning haqiqiy mazmunini, uning ichki ma’nosini” ochib bergan, “Kompozitsiyasi pishiq, dramatik to‘qnashuvlarga boy bir asar» deb ta’riflashgan. Adabiyot olamida taniqli adabiyotshunos Naim Karimovning fikriga ko‘ra, ikkinchi jahon urushi yillarida hukumat vakillari yozuvchilarni o‘tmishdagi mashhur sarkardalar, qahramonlar haqida asar yozishga da’vat etishgan. Ular bunday asarlar xalq va armiyani o‘tmishdagi jasur sarkardalardan, xalq qahramonlaridan ibrat olishga da’vat etishi, ularni bu mashhur shaxslarning vatanparvarlik fazilatlari ruhida tarbiyalashi mumkin degan qarashda bo‘lishgan. Shunday ijodiy buyurtmani olgan Shayxzoda o‘zbek xalqining jasur farzandlaridan biri Jaloliddin Manguberdi haqida sahna asari yozishga kirishgan. Respublikaning o‘sha paytlardagi rahbari Usmon

Yusupov shoirning asarini tezroq yakunlashi uchun uni yurtimizning xushmanzara, bahavo maksanlaridan biri Farg‘ona viloyatiga yuboradi. “Boshqa ishlar bilan xayolingni bo‘lma. Xalq sendan Jaloliddin to‘g‘risidagi asarni intizorlik bilan kutmoqda. Vodilga borib, uni tezroq tugallab qayt!” deya rahbar shoirni ruhlantiradi. Shunday qilib, Maqsud Shayxzoda rafiqasi Sakinaxonim bilan Farg‘onaga borib, olti oy ichida tarixiy dramani yozadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bunday tarixiy-qahramonlik asarlari o‘sha davr tuzumi, hukumat o‘ylagandek bo‘lib chiqmadi. Bu asarlar xalqda o‘zligini anglash, millati bilan g‘ururlanish ruhini uyg‘ota boshladi. Shundan so‘ng garchi buyurtma asosida yozdirilgan bo‘lsa-da, bunday asarlar mualliflari chetlashtirila boshlandi. jumladan Maqsud Shayxzodani ham o‘tmishni ideallashtirishda ayblab qamoqqa olishdi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng 1946 yilgacha “Jaloliddin Manguberdi” dramasidan ayrim parchalar “Armug‘on” to‘plamida bosilgan edi. Afsuski, millatimiz o‘zligi, tarixi, madaniyati toptalayotgan bir davrda tabiiyki boshqa nodir asarlarimiz “taqdiriga bitilgani”dek, undan keyin 43 yil davomida asar tilga olinmadi va dunyo yuzini ko‘rmadi. Asar sahnadan olingandan keyin ko‘p o‘tmay Shayxzoda qamaldi. Bu asarga o‘tmish ideallashtirilgan degan siyosiy ayb qo‘yildi. Tarixdan ma’lumki, musodara etilgan buyumlar ichida dramaning qo‘lyozmasi ham bor edi. Bunday qismat barcha buyuk ijodkorlarimiz, ziyolilarimiz asarlariga ravo ko‘rilgan “siylov” edi. Muallif oqlanib, qaytib kelganidan keyin muayyan tashkilotlar “yo‘qoldi” degan bahonalar bilan qo‘lyozmani qaytarib bermadilar. Shayxzoda uni bir necha yil qidirishga majbur bo‘ldi va nihoyat, teatrning sobiq suflyorlaridan uning bir nusxasini topishga muvaffaq bo‘ldi. Lekin shunda ham asarning matni e’lon qilinmay qolaverdi.

Xalqimizning juda topib aytgan naqli bor: Haqiqat egiladi, ammo sinmaydi. Taqdir charxpalagi aylanib, kelajak avlod ajdodining kim bo‘lganini ko‘rsatgan, tarixning qonli qo‘llarida shafqatsizlarcha toptalib, olmosdek o‘z egasiga qaytgan bu asarning

chop etilganini adib ko‘rmay olamdan ko‘z yumdi. “Jaloliddin Manguberdi”ning to‘la matni birinchi marta Bokuda ozarbayjon tilida Shayxzodaning ikki jildlik saylanmasida bosilib chiqarildi. Faqatgina 1988 yildagina Jaloliddin Manguberdi” birinchi marta o‘zbek tilida yozuvchining “Boqiy dunyo” degan kitobida to‘la bosilib chiqarildi. Xalqimiz qo‘liga yetib bordi. Odamlar qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini jo‘sh urdiruvchi, qahramonlik ruhidagi bu asar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Oradan ko‘p yillar o‘tsa ham Shayxzoda domla asarlari o‘z kuch-qudratini namoyon etib kelmoqda.

Asarda sulton Jaloliddinning oxirgi so‘zi sifatida quyidagi satrlar keltiriladi: Bir kun paydo bo‘laman shu yurt, shu yerda, Yurt shaydosi ko‘rinmas g‘urbatda – go‘rda.
Kim yurtdan yovni quvsa, mendurman o‘shal!

Ulug‘vor niyatlarga kor qilmas ajal.

Ha, ulug‘vor niyatlar ushalishiga ajal kor qilmadi. Maqsud Shayxzodaning xalqimiz tarixiga, jumladan, Jaloliddin Manguberdi taqdiri va kurashiga odilona yondashganligi, haqiqatni himoya qilganligi o‘z isbotini topdi.

Adabiyotlar:

1. M. Shayxzoda. Xiyobon: She’rlar/ M. Shayxzoda Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1967.
2. Haqiqat va go‘zallik navkari: [Maqsud Shayxzoda tavalludining 75 yilligi oldidan] // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 1983.
3. M.Shayxzoda. Jaloliddin Manguberdi. T.: 1944.
4. M. Shayxzoda. Dunyo boqiy: She’rlar, dostonlar, dramalar / M. Shayxzoda. - Toshkent: G‘afur G‘ulom. 1988.